



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

XUDOYBERDI TO‘XTABOYEVNING “SEHRLI QALPOQCHA” ASARIDA IJODIY MAHORAT

Mirsanova Moxira Xusniddin qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti, assistent

Annotatsiya.

Mazkur maqolada XX asr bolalar adabiyotining yirik vakili, iste’dodli adib Xudoyberdi To‘xtaboyevning bolalar adabiyotining taraqqiyotidagi o‘rni haqida, shuningdek yozuvchining “Sehrlı qalpoqcha” asari bir muncha tahlil etilgan, ammo sarguzasht-fantastik talqindagi ijodiy mahorati nazariy jihatdan tahlilga asosli tortilmagan. Ana shu jihatlariga jiddiy e’tibor qaratgan holda mulohazalarimizni davom ettiramiz.

Kalit so‘zlar: sarguzasht, fantastika, ijodiy mahorat, qahramon, arxetipik struktura

ТВОРЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО В ПРОИЗВЕДЕНИИ ХУДОЙБЕРДЫ ТЎХТАБОЕВА «ВОЛШЕБНАЯ ТЮБЕТЕЙКА»

Мирсанова Мохира Хусниддин кизи
Самаркандский государственный педагогический институт, ассистент

Аннотация.

В статье рассматривается место выдающегося представителя детской литературы XX века, талантливого писателя Худойберды Тўхтабоева в развитии детской литературы. Также частично анализируется его произведение «Волшебная тюбетейка», однако творческое мастерство автора в приключенческо-фантастической интерпретации до настоящего времени не было в достаточной мере обосновано и теоретически осмыслено. С учётом этих аспектов автор продолжает рассуждения, уделяя им особое внимание.

Ключевые слова: приключение, фантастика, творческое мастерство, герой, архетипическая структура.

CREATIVE MASTERY IN KHUDOYBERDI TO‘XTABOYEV’S “THE MAGIC SKULLCAP

Mirsanova Moxira Xusniddin qizi
Samarkand State Pedagogical Institute, Assistant

Abstract.

This paper discusses the role of Khudoyberdi To‘xtaboyev—a prominent representative of twentieth-century children’s literature and a talented writer—in the development of children’s literature. It also provides a partial analysis of his work *The Magic Skullcap*; however, the author’s creative mastery in its adventure–fantasy interpretation has not yet been sufficiently substantiated or examined from a theoretical perspective. Focusing on these aspects, the study further develops its observations with special emphasis on the above issues.

Keywords: adventure, fantasy, creative mastery, character, archetypal structure.

O'zbek bolalar adabiyoti o'zining taraqqiyotida yangicha yo'nalishlar, yangicha uslublar bilan boyib bormoqda. Bolalar adabiyoti har doim yosh kitobxonlarning tasavvur olamini boyitish, ularni ezgulikka, jasurlikka va odob-axloqqa o'rgatish maqsadida yaratilgan. O'zbek bolalar adabiyotini yuqori bosqichga ko'tarilishiga munosib hissa qo'shgan, o'ziga xos tasvir uslubi sohibi Xudoyberdi To'xtaboyev ijodini kitobxonlari sevib o'qiydi. Avvalo ijodkorning

Ijodkor haqida taniqli adabiyotshunos olim Umarali Normatov shunday yozadi:

“Xudoyberdi tabiatan yozuvchi bo'lib tug'ilgan edi; u yozuvchilikni, jurnalistikani kasb-hunar tarzida tanlagani yo'q, qalbidagi sehrli tug'yon, mehr-ishtiyoq uni shu sohaga boshladi. Xudoyberdi bolaligidayoq qandaydir mashrabona tabiati, xayolparastligi bilan ajralib turardi, universitetda o'qigan yillari eng jiddiy ilmiy muammolarni ham obrazli qabul qilar va boshqalarga ham obrazli qilib tushuntirib berar edi. Hali u yozuvchi bo'lishni xayoliga ham keltirmagan, ilm-fan ishtiyoqida yurgan kezlari ulkan bir psixolog murabbiymiz uning fikrlash tarziga qarab, ilk ilmiy mashqlari bilan tanishib “Bu yigirda bir gap bor” deb qo'yar, hazillashib “shoir” deb atardi.” [Normatov U. U bolalarning sirdoshi chin do'sti edi. (maqola) 2021-yil]

Yozuvchi o'zbek bolalar adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, ijodkor Umarali Normatov takidlaganidek “yozuvchi bo'lib tug'ilgan edi”. Uning ijodi o'ziga xos sarguzasht va fantastik yo'nalishdagi asarlari bilan alohida ajralib turadi. Uning qalamiga mansub asarlar nafaqat yosh kitobxonlar, balki kattalar orasida ham katta qiziqish uyg'otgan. Ijodkorning “Sehrli qalpoqcha” qissasida ijodkor mahorati masalasiga diqqat qaratmoqchimiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. U.Musayeva, F.Jo'rayeva, R.To'laboyeva, N.Yarashova, J.Lutfullayevlarning dissertatsiyalarida Xudoyberdi To'xtaboyev ijodining ayrim jihatlarini tahlilga tortilgan holda sarguzasht adabiyotiga xos jihatlar bilan birgalikda fantastik tasvir yetakchilik qiluvchi asarlariga ham diqqat qaratilgan[5,6,7,8]. Taniqli bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning mashhur “Sariq devni minib”[2; 224] asarini bilmaydigan kitobxon bo'lmasa kerak. Bu asar yuzasidan olib borilgan tahlillar bisyor. Biz sarguzasht va fantastikaning uyg'unligiga alohida e'tibor qaratganmiz. Tahlil qilish jarayonida qiyosiy-tipologik va biografik usullaridan foydalanildi.

Natijalar. Xudoyberdi To'xtaboyevning 1970-yilda sobiq ittifoq miqyosidagi eng yaxshi bolalar kitobi tanlovida mukofotga loyiq ko'rilgan “Sehrli qalpoqcha” qissasi bir necha adabiy an'analar kesishmasidagi o'ziga xos badiiy hodisadir. Bir tomondan, bu asar o'zbek milliy madaniyati, uning xalq og'zaki ijodi va didaktik manbalari zaminiga chuqur ildiz otgan; boshqa tomondan, “rivojlangan sotsializm” davrida tarbiyaviy vazifaga e'tibor, ijtimoiy ko'tarinkilik va shaxsning jamiyat bilan uyg'unlikda rivojlanishi g'oyasi xos bo'lgan sobiq sho'ro bolalar adabiyotining uzviy bir qismidir. Biroq tadqiqotchi uchun qissaga qiziqish uning g'oyaviy mazmunida emas, badiiyati sohasiga qaratilgan: aynan badiiy shakl sathida X.To'xtaboyev asarning uzoq o'qishlilik umri va dolzarbligini ta'minlagan murakkab hamda o'ziga xos janrlar sintezini yarata olgan: “Avvalo, bu asardagi voqealar shunchaki “oldi-qochdi”lar emas. Asar qahramoni Hoshimjonning g'aroyib sarguzashtlari vositasida hayotning xilma-xil lavhalari haqqoniy gavdalanitirilgan, xilma-xil, o'ta milliy xarakterlar yaratilgan, muhim ma'naviy-axloqiy muammolarga e'tibor jalb etilgan. Xullas, sarguzasht “jiddiy adabiyot”ga xos xususiyat kasb etgan. Ayni paytda folklor an'anasi bu asarga betakror milliy o'ziga xoslik baxsh etgan. Asarda sehrli qalpoqcha haqidagi ertak, shu ertakdagi muhim detal – sehrli qalpoqcha nihoyatda qo'l kelgan”[1; 79].

“Sehli qalpoqcha”da sehrli ertakning arxetipik strukturasi, sarguzasht romanning dinamik syujeti, tarbiyaviy didaktik qissaning maishiy konkretligi va psixologik haqqoniyliigi hamda o'tkir ijtimoiy kuzatuvchanlik bilan milliy kolorit paradoksali ravishda

qo‘shilib ketgan. Bu sintezni mexanik deb bo‘lmaydi; u yagona badiiy vazifa – aniq tarixiy va madaniy sharoitda bolaning ulg‘ayishi, axloqiy va aqliy shakllanishi jarayonini ko‘rsatib berishga bo‘ysundirilgan. Shu tarzda, tadqiqotning mazkur bobida asarning janr badiiyati tizim sifatida ob‘ekt, unda sehrli va haqqoniy, milliy va universal, komik va didaktik jihatlarning o‘zaro aloqa hamda ta‘sir usullari predmeti vazifasini o‘taydi. Tadqiqotning metodologik asosini narrativ sxemalar va ularning o‘zgarishlarini aniqlash imkonini beruvchi struktur-semantik tahlil; sayyor obraz-timsollarni yoritishga yo‘naltirilgan motivli tahlil; asarni sobiq sho‘ro va sharq adabiyotlarining keng ko‘lamli kontekstiga joylashtirib, baholaydigan qiyosiy-tipologik yondashuv; hamda matnning nutqiy qurilishini o‘rganuvchi lingvopoetik tahlil tashkil etadi.

Buvisidan qalpoqning oq jundan ekanligi so‘rab biladi. Shu o‘rinda aytish joizki, biz 1965-yilda nashrdan chiqqan “Sehrli qalpoqcha” qissasi va 1982-yilda nashr etilgan “Sariq devni minib” romanlarida xuddi shu diskursni solishtirib ko‘rdik: qissada buvi qalpoqning qayerdaligini bilmayman deydi, roman matnida esa o‘sha azamat keksayib o‘layotganda, sehrli qalpoqni shu atrofdagi hovlilardan biriga yashirib ketganini aytadi. Bizningcha, X.To‘xtaboyev qissada nega qahramon bola sehrli qalpoqchani dabdurdustdan o‘z qishlog‘idan qidira boshladi degan savollarga hojat qoldirmaslik maqsadida mazkur dialogni qayta ishlagan.

Qalpoqchani qidirish yozuvchi tomonidan kinoya va maishiy tafsillar bilan tasvirlanadi: “Xullas, o‘sha kundan buyon oromimni yo‘qotgandim, Izlamagan joyim qolmagandi. Faqat eski qishloqning chekkasidagi tashlandiq bir uy qolgan, xolos. Bu hovli kimniki ekanligini hech kim bilmaydi. Hatto oyim ham aniq bir narsa ayta olmadi.

Kechqurun uyga kirishdan mahrum bo‘lgach, oyim aytyapti deb, qo‘shnimizdan ikkita nonni qarzga oldimda, qorong‘i tushishi bilan o‘sha hovli tomon yo‘l oldim. Tashlandiq uydun xunugi bo‘lmas ekan. Qaysi burchakka qaramang, ajinami, alvastimi ko‘zini lo‘q qilib, menga baqrayib turganga o‘xshaydi. Hatto, nazarimda ikki marta bo‘ri ham ko‘ringandek bo‘ldi. Keyin bundoq sinchiklab qarasam, ikkovi ham mushuk ekan. Men titkilamagan burchak qolmadi. Teshikki bor, hammasiga qo‘l suqib ko‘rdim... Bir mahal charchab, suvsab, holdan toyib o‘tirib qolibman. Mudray boshladim. Yo‘q, men uxlamasligim kerak, dedim o‘zimga o‘zim. Keyin shartta o‘rnimdan turib, sal ichkariroqqa kirdim. Molxona bo‘lsa kerak, oxurda bir to‘p latta yotibdi. Orasini titkilagan edim...

Topdim! Ishonasizmi, topdim! Xuddi o‘shaning o‘zi! Oq, mayin jundan, chekkasiga ipakdan chiroyli hoshiya tikilgan!

— Salom, qalpoqcham! — deb qichqirib yubordim.

— Salom, Hoshimjon! — degan ovoz eshitildi.

— Men seni axtarib yuruvdim.

— Men ham seni kutib yotuvdim...

Boshimga ildim-u, uy tomon qush bo‘lib uchdim”[2; 12]. Bunday tafsilotlar milliy koloritni ham, qidirishning oqilona uslubini ham namoyish etadi. Sehrli buyum topilgan joy, “tashlandiq uy” ertaklardagi toposga mos, lekin psixologik ishonarli tasvirlangan: “Tashlandiq uydun xunugi bo‘lmas ekan. Qaysi burchakka qaramang, ajinami, alvastimi ko‘zini lo‘q qilib, menga baqrayib turganga o‘xshaydi”. Qahramon bolaning qo‘rquvi ertakona shartli emas, hayotiy. Hatto qalpoq bilan savol-javob ham ertaklarga xos pafosdan xoli holat. Bu do‘stona suhbat ham sehrli buyumning sakral-ilohiyligi darajasini kamaytiradi.

E‘tiborlisi, sehrli buyumni qo‘lga kiritish xalq og‘zaki ijodida hikoya qilingandek, tasodifiy omad yoki ma‘lum fazilatu ezgu ishlar uchun yuz bermaydi, balki sodda bo‘lsa-da, qat’iyatli qidiruvlar natijasidir. Jarayonning o‘zi xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan baxt

yoxud sehrli buyum, g'ayritabiiy yordamchi qidirish motivining parodiyali talqini sifatida berilgan.

Muhokama. Lutfullayev J. "O'zbek bolalar adabiyoti romanchiligining taraqqiyot tamoyillari va Xudoyberdi To'xtaboyev ijodi" nomli ilmiy tadqiqotida ushbu sehrli buyumning asosiy detal sifatida tanlanishini quyidagicha izohlab o'tadi: "Ma'lumki, o'zbek xalq og'zaki ijodi, o'zbek mumtoz adabiyoti va jahon adabiyotida sehrli anjomlar bilan bog'liq asarlar ko'p. Biroq X.To'xtaboyev qaynar xumcha, ochil dasturxon, urto'qmoq, oynai jahonnamo, sehrli ko'zgu, sirli sandiq, sirli taroq, sehrli so'ta kabi an'anaviy sehr anjomlaridan foydalanmay, o'zbeklarning milliy bosh kiyimi — sehrli qalpoqchaga murojaat qilishi ham milliylik, ham yangilik belgisidir".[3; 13]

Ustoz adabiyotshunos va munaqqid Umarali Normatovning X.To'xtaboyev ijodiga bag'ishlangan "Sarguzasht sardori" kitobidagi tanqidchi va yozuvchi suhbatida muallifning o'zi bunday g'aroyib syujetning yaratilishi va unda sehrli buyumdan foydalanish (aynan qalpoqchadan) g'oyasi qanday paydo bo'lganini quyidagicha tushuntirib beradi: "Feletonchi sifatida ba'zan jinoyatlar izidan ham borardim-u, uni fosh qilolmay, haftalab bosh qotirardim, xit bo'lib ketardim. "Qani endi, sehrli qalpoqchang bo'lsa-yu, kiyib, hech kim ko'rmaydigan bo'lib olgach, jinoyatchilar orasiga kirib, kirdikorlarini ketma-ket fosh qilib tashlayversang..." deya orzu-xayollarga berilgan paytlarim ham bo'lardi. "Sehrli qalpoqcha" sarlavhali bir feleton ham yozganman. Keyin o'ylab qoldim, bordi-yu shu sehrli qalpoqchani ishyoqmas, oqko'ngil bir bolaning qo'liga berib, uning sarguzashtlarini yozib, kattakon bir xulosa chiqarsam-chi, degan fikr keldi boshimga..."[1; 80]

Qalpoqdan foydalanish o'ta muhim bir tamoyilni namoyon etadi: sehrli buyum inson tabiatini o'zgartira olmaydi, undagi mavjud xususiyatlarni, bu asarda salbiy xususiyatlarni kuchaytiradi xolos. "Ming bir kecha"dagi Alovuddinning sehrli chirog'i ochko'zlik va kibrni kuchaytirib yuborgani kabi.

Umuman, sehrli bosh kiyim, ko'p hollarda uni boshiga kiygan kishiga ko'rinmaslik ato etadigan dubulg'a, qalpoq yoki shunga o'xshash buyumlar jahon xalqlari mifologiyasi, folklori va badiiy adabiyotida keng qo'llaniladigan artefakt (internet ma'lumotlariga ko'ra: artefakt – sun'iy yaratilgan allanima, ma'lum qiymatga ega inson tomonidan yaratilgan predmet yoki madaniy ob'ekt).

Shundan mifologiyada ko'zga ko'rinmaslik xususiyati ato etadigan buyum kam uchraydi va narigi dunyo kuchlari bilan bog'liq qudratli quvvatga ega bo'ladi.

Xulosa. Xudoyberdi To'xtaboyevning qissasi ertak qonunlarini o'zgartirib, hayotiy mantiqqa bo'ysundiradi. Sehr izchillik bilan turli ijtimoiy sohalarida sinab ko'riladi va har gal ojiz bo'lib chiqadi. Bilim va mehnatning sehr-jodudan ustun ekanligini ta'kidlash asosiy g'oyaga aylanadi. Asar yakuni ro'yodan voz kechish va haqiqiy qadriyatlarga qaytishning ramzidir. shu tarzda asar zamonaviy jamiyat uchun tarbiyaviy ertakning yangi modelini yaratadi.

Sehr va hayotiylik dialektikasi qissada qahramonning ma'naviy sinovlariga xizmat qiladi. Qalpoq yordamchi emas, personajning kamchiliklari va illatlarini fosh etuvchi ko'zgu vazifasini bajaradi. Qator muvaffaqiyatsizliklar orqali asar qahramoni sehrning qudrati cheklangani va shaxsiy rivojlanish zarurligini anglaydi. Muallif mahorat bilan xalq og'zaki ijodi an'alarini dolzarb pedagogik vazifaga omuxtalikda qo'llaydi. Natijada ertak mas'uliyat va tanqidiy fikrlashning shakllanishi vositasiga aylanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Норматов У. Саргузашт сардори: адабий портрет/ У.Норматов; - Тошкент: Adib. 2012. – Б.79. (- 112 б.
2. Тўхтабоев Х. Сарик девни миниб. – Т.: Ёш гвардия, 1982. – 464 бет.

3. Лутфуллаев Ж. Ўзбек болалар адабиёти романчилигининг тараққиёт тамойиллари ва Худойберди Тўхтабоев ижоди. Ф.ф.б.д. дисс.автореферати. - Жиззах: 2022. – Б.13.
4. Норматов У. Саргузашт сардори: адабий портрет/ У.Норматов; - Тошкент: Adib. 2012. – Б.80.
5. Ярашова Н.Ж. XXI аср ўзбек болалар адабиёти тили ва услубияти (Х.Тўхтабоев ижоди мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2020. - 138 б
6. Тулабаева Р.С. Худойберди Тўхтабоев романларида бадиий психологизм: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 148 б.;
7. Мусаева У.Д. Худойберди Тўхтабоев романларининг сюжет ва конфликт хусусиятлари. Филол. фан. номз. ... дисс. -Т., 1997. 145 б;
8. Normatov U. U bolalarning sirdoshi chin do'sti edi. (maqola) 2021-yil.
URL:<https://daryo.uz/2021/04/05/u-bolalarning-sirdoshi-chin-dosti-edi-adabiyotshunos-umarali-normatov-dosti-xudoyberdi-toxtaboyev-haqida>